

INSONLARDA ASAB TO'QIMALARINI SHAKLLANISHIDA SOYA O'SIMLIGINING ROLI

Aminjonova Charosxon Akmalovna

Buxoro davlat universitetining maqsadli tayanch doktoranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10934257>

ARTICLE INFO

Received: 1st April 2024

Accepted: 2nd April 2024

Published: 5th April 2024

KEYWORDS


xolesterin, letsitin, Parkinson xastaligi, glaukoma, ateroskleroz

ABSTRACT

maqolada soya o'simligining inson hayotidagi o'rni va Parkinson xastaligi, asab to'qimalarini shakllanishida, glaukoma, ateroskleroz kabi kasalliklarni davolashda soya o'simligini qo'llanishi haqida fikrlar bayon etilgan

Soyada insonga juda foydali letsitin moddasi bor, bu asab to'qimalarini shakllanishida qatnashadi. Letsitin miya hujayralarini tiklaydi, xotirani yaxshilaydi, miyaning funksiyasi faollashadi, inson yaxshi harakatlanadi. Letsitin Parkinson xastaligini davolashda qo'llaniladi.

Parkinson kasalligi - markaziy nerv sistemasining surunkali kasalligi. Ingliz vrachi James Parkinson 1817-yili ta'riflab bergan Parkinson kasalligida muskullar taranglashadi, yuz harakatsiz bo'lib, qotib qoladi, bemor mayda qadam tashlab yuradi, harakatlari cheklanadi, hatto kiyinish, tugmalarni qadashda qiynaladi. Titroq falaj ko'proq qo'l panjalaridan boshlanadi (bemor go'yo barmoqlari bilan sharchalar yasayotgandek harakat qiladi); bemorning boshi, oyoqlari ham titraydi, bemor qimirlamay turganda yoki juda hayajonlanganida, odatda, titroq kuchayadi, harakatlanganida kamayadi va uxlagan paytida bosiladi.




Uy sharoitida vrach tavsiyasiga ko'ra, muskullar taranglashuvini turli xil mashqlar yordamida bartaraf etish mumkin, bu mashqlarni yaxshisi iliq suvda qila boshlagan ma'qul (u

muskullarning bo'shashuvini osonlashtiradi). Bunday bemorlarga tinch sharoitda qo'l, oyoq va tanani mashq qildirish uchun yengil gimnastika bilan shug'ullanish, aniq harakatlar: mozaikalar yig'ish, bolalar kubiklarini terish foydalidir. Parkinson kasalligiga chalingan bemorlarni (juda qiyin bo'lsa ham) o'z-o'ziga qarashga va imkoniyat doirasida uydagilarga yordam berishga o'rgatib borish lozim, chunki shular ham jismoniy mashq hisoblanadi.

Organizmida xolesterin miqdorini me'yorda saqlaydi, modda almashuvini me'yorlashtiradi. Soya glaukoma, ateroskleroz, o't qopi xastaliklarini davolaydi.

Glaukoma (yun. glaucos — och ko'k, ko'kimtir-yashil), ko'k suv, nazla — ko'z kasalligi; asosiy belgilari: ko'z ichi bosimining oshishi, ko'ruv maydonining torayishi va ko'ruv nervi diski atrofiyasi. Birlamchi, ikkilamchi va b. Glaukoma farq qilinadi. Birlamchi Glaukoma mustaqil kasallik bo'lib, u ko'z ichi bosimi boshqarilishi va ko'z ichi suyuqligi chiqishining buzilishidan yuzaga keladi. Asosan 35—40 yoshdan oshgan odamlarda uchraydi. Ko'z ichki burchagining holatiga qarab yopiq burchakli, ochiq burchakli va aralash burchakli shakllarda bo'ladi. Yopiq burchakli Glaukomada ko'pincha bemorning bir ko'zi va boshining o'sha tomoni dapqir-dapqir og'rib qo'yadi, ko'z xiralashadi, yorug'ga qaraganda yoysimon doira ko'rinadi. Vaqt o'tishi bilan ko'z va peshonadagi og'riq kuchayib, bemorning ko'ngli aynib, qayt qiladi, ko'zi qizarib yoshlanadi; ko'z oldida joylashgan qon tomirlar kengayadi. Muguz parda xiralashadi, ko'zning old qismi sayozlashadi, qorachiq kengayib, yorug'dan torayish xususiyati yo'qoladi, ko'kimtir-zangori rangga kiradi. Ko'z ichi bosimi keskin oshib, ko'z soqqasi qattiqlashadi. Glaukomaning o'tkir xuruji ro'y beradi. Ochik burchakli Glaukoma bilan xastalangan bemor anchagacha ko'zidan shikoyat qilmasligi mumkin. Ko'z ichi bosimi oshadi-yu, lekin og'riq ko'z sog'idan deyarli farq qilmaydi; bosim ortgan sari ko'ruv nervi va to'r parda ezilib, ularda qon aylanishi qiyinlashadi, natijada ko'rish maydoni torayib, ko'rish yomonlashadi. Aralash burchakli Glaukoma asosan gonioskopiya usuli bilan aniqlanadi.

Aterosklerozni ilk bosqichlarda mustaqil aniqlashning aslo iloji yo'q. Hech bo'lmaganda yilda bir marta organizmni to'liq tekshiruvlardan o'tkazib turmaslik oqibatida kasallik og'ir darajaga yetishi va yog' qatlamlari qon aylanishini to'sib qo'ygandagina undan boxabar bo'lish mumkin. O'rta va og'ir darajadagi ateroskleroz alomatlari aynan qaysi tomirlar zarar ko'rganiga qarab farqlanadi.



Kasallik bir necha asoratlarga ega bo'lib, sog'liq va hayotga tahdid soladi.

- Agar yurakka boruvchi arteriyalar toraysa, qon oqimi sekinlashib ketadi. Bu yurak ishemik kasalligi va stenokardiyasiga olib keladi. Ba'zida miokard infarkti va o'lim bilan ham yakunlanishi mumkin.
- Miyaga qon yetkazuvchi tomirlarning torayishi insultga sabab bo'ladi.
- Qo'l yoki oyoq arteriyalaridagi tiqilishlar tomir tortishishiga, mushak og'rig'i va ba'zi holatlarda gangrenaga olib keladi.
- Ateroskleroz tomir devorida anevrizmani (bir yerda kengayish) keltirib chiqarishi mumkin. Bu esa ichki qon ketishi boshlanishi va qaytalanishiga sabab bo'ladi.

Ateroskleroz belgilari quyidagicha:

- ko'krak qafasi orqasidagi og'riq;

- nafas qisilishi paydo bo'ladi;
- tez-tez bosh og'riydi;
- quloqlarda shovqin paydo bo'ladi;
- ishlash faoliyati sezilarli darajada kamayadi;
- stress va tushkunlikka olib kelishi mumkin bo'lgan charchoq kuchayishi sindromi paydo bo'ladi;
- umumiy holsizlik;
- qon bosimi ko'tariladi;
- xotira ishlashi pasayadi;
- oyoqlarda og'riqli hislar paydo bo'ladi;
- oyoqlar shishadi, uvushish bo'ladi;
- muntazam ravishda bel tomondan og'riq paydo bo'lib, u oyoqlarga tarqalishi mumkin;
- agar bemor davolanmasa, xotiraning og'ir buzilishi va miya faoliyati susayishi xavfi mavjud;
- keyingi bosqichlarda davolanmaslik vaqt va makonda yo'nalishni yo'qotishiga olib keladi.

Ateroskleroz belgilari aniq belgilangan, ammo shunga qaramay, odamlar kamdan-kam hollarda yordam uchun shifokorga murojaat qilishadi. Qon tomirlar kelajakda deyarli tiklanmaydi, shuning uchun darhol muammolarni bartaraf etishga kirishish kerak.

Yoshi katta insonlarda letsitin kamayadi, shuning uchun soya mahsulotlarini ko'proq iste'mol qilish tavsiya etiladi. Letsitin insonlarni uzoq yashash va faol hayot kechirishiga yordam beradi. Olib borilayotgan tadqiqotlar soya o'simligini inson organizmiga ijobiy ta'sir ko'rsatadigan hali ochilmagan qirralarini ochmoqda. Rivojlanayotgan davlatlarda oqsil taqchilligi kuchli bo'lgan mintaqalarda go'sht ishlab chiqarish qimmatga tushishini hisobga olib, soya mahsulotini joriy etish qaror qilingan. Xalqaro soya dasturi (INTSOY) asosida soya mahsulotini ko'p xalqlarning ovqatlanish ratsioniga kiritish maqsadida faoliyat ko'rsatadi. Illinoys shtati Illinoys universitetining Xalqaro soya dasturi vakillari Misrda faol mehnat qildilar, LKShning "Korpus mira" tashkiloti soya mahsulotlarini Malaziyaga joriy etdi, Mennonit tashkilotining Markaziy qo'mitasi mudtsatidan oldin soya mahsulotlarini Bangladeshda ishlab chiqarish loyihasini tuzib berdi.



BMT ma'lumoti bo'yicha XXI asrda yer yuzining aholisi 4 mlrdga oshishi kutilmoqda, shuning uchun soya mahsulotini kengaytirish, tarqatish ishlari yanada oshadi. Soya barcha dukkakli o'simliklar kabi havo azotini o'zlashtirish qobiliyatiga ega, bu jarayon Rizobium japonicum bakteriyalari bilan simbioz evaziga bajariladi. Tuproq iqlim sharoitiga bog'langan holda bir mavsumda bir gektar maydonda 50-150 kg ekologik toza azot to'planishi mumkin. Soya yetishtirilgan maydonda ekologik muhit yaxshilanadi, mineral azot kam qo'llanadi, mahsulotning tannarxi kamayadi.

Texnik ahamiyati. Soyaning oziq-ovqat sanoati va chorvachilikda ishlatilmaydigan chiqindilaridan turli mahsulotlar - qurilish plitalari, matolar, sun'iy o'g'itlar ishlab chiqarish mumkin. Soya moyi ishlab chiqarish qoldiqlaridan bo'yoq, sovun, lak, qora bo'yoq, rezina mahsulotlari ishlab chiqarish mumkin. Texnik ekin sifatida soya sovun, lak-bo'yoq, to'qimachilik, kimyo va sanoat tarmoqlarida qo'llaniladi. Soyadan plastmassa, plyonka, linoleum, texnik moy va boshqa ko'pgina mahsulotlar tayyorlanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Aminjonova, C. (2023). RESPUBLIKAMIZDA SOYA O'SIMLIGIGA BO'LGAN TALAB. *Центральноазиатский журнал образования и инноваций*, 2(6 Part 6), 215-219.
2. Aminjonova, C. (2023). RESPUBLIKAMIZDA SOYA O'SIMLIGIGA BO'LGAN TALAB. *Центральноазиатский журнал образования и инноваций*, 2(6 Part 6), 215-219.
3. Shavkatovich, S. H. (2024). AN ORGAN-PRESERVING SURGICAL OPERATION FOR GENITAL PROLAPSE. *Journal of Advanced Scientific Research (ISSN: 0976-9595)*, 5(1).
4. Shavkatovich, S. H. (2024). COMPLICATIONS DURING EMERGENCY CESAREAN SECTION OPERATION IN OBSTETRICS. *JOURNAL OF HEALTHCARE AND LIFE-SCIENCE RESEARCH*, 3(2), 30-33. Shavkatovich, S. H. (2024). COMPLICATIONS DURING EMERGENCY CESAREAN SECTION OPERATION IN OBSTETRICS. *JOURNAL OF HEALTHCARE AND LIFE-SCIENCE RESEARCH*, 3(2), 30-33.
5. Shavkatovich, S. H., & Negmadjanov, B. B. (2020). Optimization Of Pelvic Prolaps Surgical Correction Using Its Own Tissues. *The American Journal of Medical Sciences and Pharmaceutical Research*, 2(12), 15-19.
6. Ташпулатова, Ф. К., & Абдусаломова, М. И. (2020). Частота и характер побочных реакций от противотуберкулезных лекарственных средств у больных детей туберкулезом. *Новый день в медицине*, (2), 544-547.
7. Ташпулатова, Ф. К., & Абдусаломова, М. И. (2020). Частота и характер побочных реакций от противотуберкулезных лекарственных средств у больных детей туберкулезом. *Новый день в медицине*, (2), 544-547.
8. Khomova, N., Tashpulatova, F., & Sultanov, S. (2017). Compliance-is patient adherence to treatment, as well as partnerships between doctor and patient.
9. Ташпулатова, Ф. К., Жалолов, А. Ж., Медведева, Н. В., & Долгушева, Ю. В. (2016). Уровень комплаенса у больных с лекарственно устойчивым туберкулезом. In *Медицина: вызовы сегодняшнего дня* (pp. 46-50).
10. Ubaïdullaev, A. M., RSh, K., Stoianovskiï, E. A., & Ataulloeva, D. E. (2000). Tuberculosis epidemiology and disease control in Uzbekistan. *Problemy Tuberkuleza*, (3), 7-9.
11. Вахабов, А. А., & Ташпулатова, Ф. К. (2018). Поражение печени у больных туберкулезом легких при побочных реакциях от противотуберкулезных препаратов. *Молодой ученый*, (3), 91-93.
12. Хомова, Н. А., & Ташпулатова, Ф. К. (2018). Сравнительный анализ применения шкалы Мориски-Грин и опросника "Уровень комплаентности" в исследовании приверженности к лечению у больных туберкулёзом лёгких. *Вестник Авиценны*, 20(2-3), 299-304.
13. Ташпулатова, Ф. К., & Дадаходжаева, Л. С. (2013). Применение фитоадаптогенов в комплексной терапии у больных деструктивным туберкулезом легких. *Клиническая медицина Казахстана*, (2 (28)), 66-67.
14. Yusupbekov, A., Kanda, M., Usmanov, B., Tychiev, O., Baymakov, S., Sakamoto, J., & Yusupbekov, A. (2020). Surveillance of Esophageal Cancer in the Republic of Uzbekistan from 2000 to 2018. *Asian Pacific Journal of Cancer Prevention: APJCP*, 21(8), 2281.

15. Baymatovich, U. B., Axmedjanovich, Y. A., Vakhidovich, K. R., & Abdullaevna, I. U. (2016). Analysis of the surgical treatment of the pulmonary metastatic lesions. *European science review*, (3-4), 197-199.
16. Gayratovich, U. F., Dehkonovich, D. M., & Ahmedjanovich, Y. A. (2016). The modern principles of surgical treatment in non-organ retroperitoneal tumors. *European science review*, (3-4), 195-197.
17. Yusupbekov, A., Shinozuka, T., Juraev, E., Usmanov, B., Kanda, M., Sakamoto, J., & Tuychiev, O. (2024). Exacerbated prognostic impact of multiple intramural metastasis versus single intramural metastasis of thoracic esophageal squamous cell carcinoma: evidence from an Uzbekistan cohort. *Surgery Today*, 1-8.
18. Еникеева, З. М., Агзамова, Н. А., Абдилова, А. Ч., Ибрагимов, А. А., Салихов, Ф. С., Ярашева, Н. И., ... & Тилляшайхов, М. Н. (2020). Республиканский специализированный научно-практический медицинский центр онкологии и радиологии, Ташкент, Узбекистан. *НАЦИОНАЛЬНЫЕ РЕДАКЦИОННЫЕ КОЛЛЕГИИ*, 8(3).
19. Usmanov, B. B. (2015). Current strategies for diagnostics and treatment of lung and pleura metastasis. *Russian Journal of Oncology*, 20(6), 46-50.
20. Baymatovich, U. B., Axmedjanovich, Y. A., Vakhidovich, K. R., & Abdullaevna, I. U. (2016). Analysis of the surgical treatment of the pulmonary metastatic lesions. *European science review*, (3-4), 197-199.
21. Khairuddinov, R., Usmanov, B. B., Rustamov, S. H., Madiarov, B. T., Juraev, E. E., Rasulov, A. E., & Djumanazarov, T. M. (2014). 414. Development and improvement of diagnosis and treatment of invasive esophageal cancer. *European Journal of Surgical Oncology*, 40(11), S159.
22. Axmedjanovich, Y. A., Baymatovich, U. B., Vakhidovich, K. R., & Dilshodovich, T. O. (2019). Modern views in diagnostics and treatment of esophageal cancer (literature review). *European science review*, (3-4), 57-62.
23. Ibragimov, A. A., Enikeeva, Z. M., Agzamova, N. A., Madyarov, B. T., Usmanov, B. B., Amonov, A. I., & Pulatov, C. C. MECHANISM OF ANTINEOPLASTIC AND RADIOSENSITIVITY ACTION OF THE PREPARATION K-26. In *XIII International Symposium on the Chemistry of Natural Compounds (ISCNC 2019)* (p. 102).
24. Yusupbekov, A. A., Usmanov, B. B., & Khakimov, Y. S. (2019). THE ROLE OF PARENTERAL CORRECTION OF HOMEOSTASIS IN SURGERY FOR CANCER OF THE ESOPHAGUS AND CARDIOESOPHAGEAL ZONE. *Toshkent tibbiyot akademiyasi axborotnomasi*, (4), 145-147.
25. Ismailov, S. I., Negmatov, J. B., Rashitov, M. M., Atadjanova, M. M., Allayarova, G. I., Muratova, S. T., ... & Elov, A. A. (2016). Universal salt iodization program in Uzbekistan: A cost-benefit analysis. *Europäische Fachhochschule*, (2), 21-24.
26. Ismailov, S., Yuldasheva, F., & Muratova, S. (2013, August). Level of iodine supply among the population of Tashkent region in the Republik of Uzbekistan. In *The 27th congress of the International Pediatric Association. Melbourne, Australia, 24* (p. 812).
27. Muratova, S. T. (2021). Диагностированные нарушения минеральной плотности костной ткани и уровней кальцитропных гормонов у детей с ювенильным гипертиреозом. *Modern Pediatrics. Ukraine*, (3 (115)), 23-30.
28. Muratova, S., & Alimov, A. (2020, August). Mineral density of bone tissue, parathyroid hormone and vitamin D in children and adolescents with thyrotoxicosis. In *Endocrine Abstracts* (Vol. 70). Bioscientifica.

29. Муратова, Ш. Т. (2017). Психозендокринные нарушения у подростков с болезнью Грейвса. *Международный эндокринологический журнал*, 13(4), 271-275.
30. Muratova, S. (2023, May). A case of follicular thyroid cancer in a girl with Graves. In *Endocrine Abstracts* (Vol. 90). Bioscientifica.
31. Muratova, S., Alimov, A., & Azimova, S. (2022, May). Influence of the mother. In *Endocrine Abstracts* (Vol. 81). Bioscientifica.
32. Kholbaevich, K. G., Tursunkulovich, E. K., Khamrokulovna, E. Y., & Kayumkhodjaevich, A. A. (2020). Phenological phases and thermal mode of the winter wheat in the irrigated areas in the Fergana region. *International Journal of Psychosocial Rehabilitation*, 24(5), 3833-3838.
33. Abdullaev, A. Q., Kholbaev, G. X., & Safarov, E. Y. (2009). Guidelines for the use of mathematical statistics, the use of computers and geographic information systems in finding related equations in agrometeorology. *T. GMITI*.
34. Kholbaev, G. K., & Abdullaev, A. K. (2020). Change of meteorological values in the autumn of Republic of Karakalpakstan and Khorezm region. *Change*, 7(3).
35. Абдуллаев, А. К., Холбаев, Г. Х., Пулатов, У. Ш., Кутлимуратов, Х. Р., Абдумажитов, Д. И., & Султашева, О. Г. (2007). Многолетние значения метеорологических элементов по странам мира.
36. Kholbaevich, K. G., Kayumkhodjaevich, A. A. L., & Khamrokul, E. (2020). The vegetation period of winter wheat in southern areas of the Republic of Uzbekistan. *Journal of Critical reviews*, 7(9), 122-125.
37. Абдуллаев, А. К., & Холбаев, Г. Х. (2005). Рис, пшеница и хлопковое волокно по странам мира. *Т.: НИГМИ*.

INNOVATIVE
ACADEMY